

SHAXSSIZ IBORALAR LINGVOSEMANTIK VOSITA SIFATIDA (FRANSUZ TILI MATERIALIDA)

N. Suvonova ¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada shaxssiz iboralarning umumiy kommunikativ xususiyatlari aloqa birligi sifatida ko'rib chiqiladi, shuningdek, shaxssiz iboralarning mantiqiy idrok etilishi va yashirin ma'nolarning o'ziga xos grammatik omillari orqali aks etishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shaxssiz ibora, kommunikativ frazeologik birliklar, zarurat va borliq kategoriyasi, makon va zamon kategoriyasi.

doi: <https://doi.org/10.2024/9mps5g88>

Ma'lum bir til birliklariga xos lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari albatta, ularni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish bilan bog'liq va ushbu faoliyat mazkur til birliklari ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy-psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro'yobga chiqishini va shu asnoda til tizimi rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi esa pragmatikadan boshlanadi [1,56]. Zero, til doimo so'zlovchining shaxsiy istagi, foydasi uchun xizmat qiladi. SHunday ekan, mazkur maqolada ham fransuz frazeologiyasidagi shaxssiz iborali birliklarning o'ziga xos ayrim xususiyatlarini tahlil qilish va ularga xos lingvopragmatik xususiyatlar borasida fikr yuritmoqchimiz.

Biz bilamizki, frazeologik birliklar (keyinchalik FB) o'zilarining kommunikativ xususiyati bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi. A.G.Nazaryan ta'biri bilan aytganda, fransuzcha FB'larni ham nokommunikativ va kommunikativ [2,28] turlarga, M.Pekman ta'biri bilan aytganda esa, tilda mavjud barcha FB'larni so'zga teng va gapga teng birliklarga (*les unites de type **mot** et les unites de type **phrase***) [3,134] ajratish mumkin. Shunga asosan, fransuzcha aynan shaxssiz iborali FB'larni keltirilgan tasniflarning ikkinchi turiga, ya'ni kommunikativ yoki gapga teng FBlar tarzida talqin qilish lozim. Negaki, fransuz tilidagi shaxssiz iboralarning barchasi gapga teng birlik hisoblanib, o'zlarida kommunikativlik xususiyatini aks ettiradi. Bundan tashqari, ularning tarkibidagi fe'lning doimo uchinchi shaxs birlikda tuslangan tarzda kelishi ham fikrimiz isbotidir. Masalan: ***Il est belle heure pour arriver!*** - Ayni, muddao!

Il y a temps pour tout. - Har narsaning o'z vaqti bor.

Bu misollardagi vaqtni ifodalovchi ***Il est*** va ega bo'lish ma'nosini ifodalovchi ***Il y a*** shaxssiz qurilmalari tarkibidagi *être* va *avoir* fe'llarining hozirgi zamon uchinchi shaxs birlikda tuslanib kelishi fransuz tilidagi shaxssiz iborali barcha FB'larning gap strukturasi gapga teng kommunikativ FB ekanligidan dalolat beradi. Ular orasida nokommunikativ, ya'ni so'zga teng FBlar uchramaydi. Ularni to'plangan aniq misollar asosida tadqiq etish jarayonida struktur nuqtai nazardan ikki turga ajratgan holda o'rganish mumkin. Ya'ni, fransuz tilidagi shaxssiz iborali FB'larni yopiq va ochiq strukturali FB'larga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda yopiq strukturali

FBlar to'liq tugal ma'noga ega bo'ladi va struktur nuqtai nazardan tugallangan gap singari no'qta bilan yakunlanadi. Ochiq strukturali FBlar esa aksincha, ya'ni to'liq tugal ma'noga ega bo'lmaydi va natijada uch nuqta bilan yakunlanadi. Masalan,

¹ N. Suvonova, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

- yopiq shaxssiz iboralar: *Il n'y a pas de fumée sans feu.*

Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi.

Il y a temps pour tout. - Har narsaning o'z vaqti bor,

- ochiq shaxssiz iboralar: *Il fait meilleur de...*

Yaxshisi, ... Il fait bon ... - ... qilish yaxshi (*ma'qul*).

Bunday turdagi FBlardan yopiq strukturali shakllar fransuz frazeologiyasida keng tarqalgan bo'lib, ular asosan, maqollarni o'z ichiga oladi. Ochiq strukturali FBlar esa ko'proq matallarni o'z ichiga oladi.

Fransuzcha shaxssiz iboralarning nutqda qo'llanilish sohalari ancha keng qamrovli bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- "bor bo'lmoq" ma'nosida (mavjudlik kategoriyasi): *Il y a*;

- "kerak bo'lmoq" ma'nosida (zarurat kategoriyasi): *Il faut*;

- "ob-havo" ma'nosida (makon kategoriyasi): *Il fait*;

- "vaqt" ma'nosida (zamon kategoriyasi): *Il est*;

Bunday tasnif frazeologik iboralarning asosiy elementi sanalgan shaxssiz iboralar, *Il y a ...*; *Il faut...*; *Il fait...*; *Il est...*; kabilarning ifoda mazmunidan kelib chiqqan. Ammo ular boshqa komponentlar bilan birga qo'llanilib, frazeologik ibora hosil qilganda esa, ifodalayotgan frazeologik ma'no xususiyatlaridan kelib chiqqan holda boshqa ma'no kategoriyalarini ifodalashi mumkin va har biri o'ziga xos mantiqiy turli xil nutqiy mazmundorlikni hosil qiladi, ya'ni, *Il y a commencement à tout.* - *Lo'li bir eshikdan o'tguncha* iborasini olaylik. Unda so'zma-so'z tarjima nuqtai nazaridan *Il y a* iborasi bilan boshlanganligi sababli mavjudlik ma'nosi aks etgan. Biroq ularning frazeologik ma'nosi esa, mavjudlik ma'nosini inkor etgan holda ma'lum bir harakatning amalga oshirish jarayonini aks ettirmoqda. Ya'ni, *Lo'li bir eshikdan o'tguncha* iborasi ma'lumki, zamon tushunchasini ifodalamoqda. Xuddi shunday shaxssiz iboralarga quyidagilarni keltirish mumkin. Ular:

Fransuzcha misollar:	Shaxssiz ibora ma'nosi	O'zbekcha talqini :	Frazeologik ma'no
<i>Il ne faut pas vendre la peau de l'ours avant de l'avoir tué.</i>	zarurat	<i>Podadan oldin chang chiqarma.</i>	zamon
<i>Il n'y a plus que courage.</i>	mavjud	<i>Ko'pi ketib ozi qoldi.</i>	zamon
<i>Il faut savoir hurler avec les loups.</i>	zarurat	<i>Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.</i>	zamon
<i>Il est belle heure pour arriver !</i>	zamon	<i>Ayni, muddao!</i>	zamon

Ularning asosiy komponentlari orasida ham ikki xil strukturalilikni uchratish mumkin. Ushbu holat ularning inkor ma'noni ifodalash shakllari bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bunday shaxssiz iboralar qatoriga faqat "bor bo'lmoq" ma'nosidagi *Il y a* va "kerak bo'lmoq" ma'nosidagi *Il faut* qurilmalarini kiritish maqsadga muvofiq. Negaki, boshqa shaxssiz iboralarning FBlar tarkibida inkor ma'noni ifodalab kelish hollari juda kamdan-kam vaziyatlarda uchraydi.

Shuning bilan birgalikda, nutqiy tuzilmaning muloqot birligiga aylanishi va matndan o'z o'rnini topishi uchun uning grammatik shaklga ega bo'lishi etarli emas. Ushbu tuzilma matnga mos kelishi, umumiy kommunikativ maqsadga erishish ehtiyojini qondirishi lozim bo'ladi. Muloqot jarayonida bunday iboralardan foydalanish so'zlovchining o'z kommunikativ maqsadiga erishish uchun ularni jo'yali, o'z o'rnida ishlata olishi lozim. Faqat shundagina u tinglovchini o'ziga jalb qila oladi. Xuddi shuningdek, tinglovchi – adresat ham grammatikalashtirish usul va vositalari bilan tanish bo'lgan holdagina nutqiy harakat mazmunini anglaydi, shartli belgilarni mantiqan idrok etadi va ularning sirli, yashirincha ma'no jilolarini ocha oladi [1, 246].

Fransuz tilidagi shaxssiz iborali FBlarining o'ziga xos xususiyatlari yuqorida ta'kidlanganidek, xilma-xil bo'lib, ularni o'rganishdagi bunday yondashuv ularga xos ko'plab

semantik, grammatik, leksik va funksional xususiyatlarni ochib berish imkoniyatini hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Safarov SH. *Pragmalingvistika*. – Jizzax : Sangzor nashriyoti, 2008 yil. - 318 b.
- [2]. Nazaryan A.G. *Frazeologiya sovremennogo fransuzskogo yazyka*. – M.:VSH, 1987. –317 s.
- [3]. M. Pecman. *L'enjeu de la classification en phraseologie // Actes du congres EUROPHRAS*, 2004. - Baltmannsweiler : Schneider Hohengehren Verlag, pp. 127-146
- [4]. Rey A., Chantreau S. *Dictionnaire des expressions et locutions*. -Nouv. ed. rev. et augm. – Paris, 1984. –1035 p.
- [5]. Сувонова Н.Н., Долиева Л.Б. *Description of human spirituality in the phraseological units with French onomatopoeic verbs //Иностранные языки в Узбекистане*, -2020. P.-55-69
- [6]. Ashurov, S., & Suvonova, N. (2023). *Humorous phraseologisms-as a tool of funny assessment of real events (in French material)*. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 65, p. 10024). EDP Sciences.
- [7]. Ашуров Ш. *Хорижий тилларни ўрганишда маданиятнинг таъсири //Иностранная филология: язык, литература, образование*. – 2018. – Т. 3. – №. 2 (67). – С. 10-14.
- [8]. Ашуров Ш. *Лексические особенности английских эквивалентов узбекских пословиц, передающих национальные ценности //Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-10.
- [9]. Ашуров , Ш. 2023. *Лексические особенности английских эквивалентов узбекских пословиц, передающих национальные ценности. Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 1, 1 (янв. 2023), 1–10. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss1-pp1-10>.
- [10]. Сувонова Н.Н., Алиева Г.Т. *National features of transliting uzbek folk proverbs into french//Иностранные языки в Узбекистане*, -2020. P.- 183-196